

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	6
<b>Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi .....	11
<b>Karimova Nilufar</b> , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan .....	16
<b>Peng Xinge</b> , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
<b>Xotamov Ibodulla Sadullayevich</b> , i.f.n., professor, <b>Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li</b> , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
<b>Azlarova Munira Muhammad Amin qizi</b> , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective .....	40
<b>Kuzikulova Dilfuza</b>	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
<b>Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna</b> , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
<b>Eshbayev Oybek</b> , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
<b>Rozikov Ravshan</b> , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
<b>Kurbanova Nigina</b> , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road .....	85
<b>Kalonov Mukhiddin Bahridinovich</b> , professor	
<b>Shao Junling</b> , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
<b>Zhao shenghan</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
<b>Abduraximova Dilora Karimovna</b> , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
<b>Xasanxonova Nodira Isametdinovna</b> , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
<b>Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich</b> , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat .....	112
<b>Kaxorova Anora Nusratovna</b> , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari .....	118
<b>Qahramon Usmanovich Umidullayev</b> , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish .....	129
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari .....	133
<b>Sh. B. Babayev</b> , dotsent; <b>M. R. Qulmetov</b> , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari .....	138
<b>G'aniyev Shahriiddin Vohidovich</b> , professor, i. f. d. (DsC), <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики .....	144
<b>Жиянова Наргиза Эсанбоена</b> , к.э.н., проф., <b>Азимжонова Малика Шавкат қизи</b> , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi .....	150
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b> , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
<b>Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli</b>	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов .....	160
<b>Хакимов Назар Хакимович</b> , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership .....	166
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li</b>	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
<b>Xasanova Zarina</b> , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
<b>M. O. Hamroqulov</b> , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
<b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region) .....	188
<b>Saidov Nurali Rakhimovich</b>	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region. ....	193
<b>S. M. Rakhimova</b>	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров .....	197
<b>Джурабаев Отабек Джурбаевич</b> , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
<b>Hakimov Feruz Xurshid o'g'li</b> , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni .....	207
<b>Baratova Dinora Alisherovna</b> , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari .....	213
<b>Qulmatova S.</b> , PhD, katta o'qituvchi; <b>Karimov Botir</b> , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati .....	218
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b> , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari .....	228
<b>Saydullayeva Fotima Jozilovna</b> , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
<b>Xasanov Xayrulla Nasrullahovich</b>	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba .....	241
<b>Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich</b> , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе ....	247
<b>Оспан Айзада Бейсенқызы</b> , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
<b>Mirzoyev Feruz Mamurjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari .....	259
<b>Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth .....	267
<b>Rasulov Jamshid Shokir o'g'li</b>	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
<b>Madraimov Xabibulla Madaminovich</b> , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari .....	282
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b> , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash .....	288
<b>Ergashova Nargiza Boboxonovna</b> , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari .....	296
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati .....	306
<b>Babadjanova Malika Ruzimovna</b> , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli .....	312
<b>Kamilov Baxramjon Umardjonovich</b>	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
<b>Bekdavlat Aliyev</b> , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari .....	321
<b>O. T. Nurmatov</b> , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
<b>Abdullayev Suyun Artiqovich</b> , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b> , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
<b>D. A. Azlarova</b> , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs .....	360
<b>Kholikova Rukhsora Sanjarovna</b> , PhD, <b>Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli</b> , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari .....	364
<b>Zuhra Abdikarimova</b> , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
<b>Sindarov Fazliddin Qahramonovich</b> , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari .....	376
<b>To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi</b> , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
<b>B. K. Tuxliyev</b> , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
<b>Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b> , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
<b>Aminboy Sa'dullayev</b> , i.f.n., dotsent, <b>Dilshod Vaisov</b> , magistr, <b>Farhod Egamberganov</b> , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
<b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b> , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
<b>Muxtidinova Kamola Alisherovna</b> , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
<b>Gafurov Olimjon</b> , teacher, <b>Kholmuminov Humoyun</b> , teacher, <b>Abrueva Sevinch</b> , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики .....	411
<b>Ф. Т. Абдувахидов</b> , доцент, <b>А. Ю. Нурмухаммедов</b> , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri .....	417
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b> , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan .....	420
<b>Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli</b>	



# DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Zuhra Abdikarimova

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqlada davlat xususiy sheriklik munosabatlarning institutsional asoslaring shakllantirilishi, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarning tashkil etilishi va boshqarish bilan shug'ullanishi, sheriklik loyihalari doirasida ishbilarmon qatlamning davlat va jamiyat bilan munosabatlari tamoyillari va strategiyasini ishlab chiqishi yoritilgan.

Shuningdek, Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari infratuzilmani isloh qilish va xizmatlarni taqdim etishda innovatsion hamkorlik shaklini amaliyotga joriy etishga qaratilgan turli yondashuvlar tadqiq qilingan va muallifning ilmiy va amaliy xulosalari shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, boshqaruv, texnologiya, innovatsiya, jamoatchilik, sheriklik munosabatlari.

**Аннотация:** В статье описывается формирование институциональных основ отношений государственно-частного партнерства, организация и управление отношениями государственно-частного партнерства, разработка принципов и стратегий деловых отношений с государством и обществом в рамках партнерских проектов.

Также были исследованы различные подходы, направленные на реализацию формы инновационного сотрудничества в сфере реформирования инфраструктуры и оказания услуг государственно-частного партнерства и сформированы научно-практические выводы автора.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнерство, инфраструктура, управление, технологии, инновации, общественность, партнерские отношения.

**Abstract:** The article describes the formation of the institutional foundations of public-private partnership relations, the organization and management of public-private partnership relations, the development of principles and strategies of business relations with the state and society within the framework of partnership projects.

Also, various approaches aimed at implementing the form of innovative cooperation in infrastructure reform and service provision of public-private partnership relations were researched and scientific and practical conclusions of the author were formed.

**Key words:** public-private partnership, infrastructure, management, technology, innovation, public, partnership relations.

## KIRISH

Har bir mamlakatda amalga oshirilayotgan davlat siyosatning asosiy maqsadi fuqarolarning normal hayot kechirish sharoitlarini yaratib berish, ularning ijtimoiy hayotdagagi to'g'ri pozitsiyasini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Buning uchun mamalakatda aholi uchun birinchi darajali ehtiyojlar, ya'ni kommunal soha, tibbiyot, ta'lim, transport, umuman olganda, butun bir infratuzilma yetarli miqdorda ta'minlangan bo'lishi, qolaversa, ularning sifati yuqori darajada bo'lisinga erishilmog'i lozim. Bu esa o'z orqasidan ikkinchi muhim masala, ya'ni infratuzilma obyektlarini moliyalashtirish masalalarini qo'yadi. Aholi sonining yildan-yilga ortib borishi bilan birga mamlakatda kerakli infratuzilmaga talab oshadigan bir davrda davlat byudjeti bu borada qator muammolarga duch kelishi mumkin.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari infratuzilmani isloh qilish va xizmatlarni taqdim etishda innovatsion hamkorlik shaklidir. Xalqaro Valyuta jamg'armasi fikriga ko'ra, DXSh – davlat tomonidan an'anaviy tarzda ta'minlanadigan infratuzilmaviy aktivlar va xizmatlarni xususiy sektor tomonidan taqdim etishga qaratilgan ke-




lishuvdir. Jahon banki esa ushbu munosabatlarni xususiy tomon va davlat organi o'rtasidagi davlat aktivlarini yaratish yoki xizmatlarini taqdim qilish uchun uzoq muddatli shartnomalarini ekanligini ta'kidlab, unda xususiy tomon sezilarli katta risklar va boshqaruv uchun javobgarlikni olishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchilar E. R. Yeskomb, E. Farkuxarson fikricha, davlat-xususiy sheriklik xususiy sektor tomonidan infratuzilmani qurish, loyihalash, boshqarish borasidagi uzoq muddatli kelishuv va ushbu kelishuvdan maqsad obyektning to'liq yoki muhim qismini moliyalashtirish uchun xususiy sektor kapitalidan foydalanishni nazarda tutadi. Iossa.Ye. va Martimort.D esa ushbu munosabatlarni quyidagicha ta'riflaydi: "DXSh bu - davlat organi (mahalliy yoki markaziy davlat organi bo'lishi mumkin) va xususiy tomon o'rtasidagi ayrim xizmatlarni taqdim etish bo'yicha shartnomaviy kelishuv bo'lib, bunda xususiy sektor infratuzilmani qurish yoki yangilash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, investitsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha kelishuvlarni amalga oshiradi va keyin ushbu obyektni boshqaradi va saqlaydi".

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida, ishtirokchilarining maqsadlari uyg'unligini ta'minlashda eng muhum va asosiy jihatlardan biri huquqiy-institutsional asoslarning mavjud bo'lishi hisoblanadi. Djeffri Delmon davlat-xususiy sheriklik loyihami qarorlari amalga oshirish va investitsiya muhitini yaratish 3 ta asosiy omilga bog'liq ekanligini va ular jarayonni amalga oshirish va rag'batlantirish uchun xodimlar, jarayonni osonlashtira oladigan qonunchilik va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning mafjudligidan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Qayerda yetarli sharoit va muhit yaratilgan bo'lsa, shuningdek, qabul qilinadigan qarorlar ma'lum yuridik maqomga ega va o'zgarmas bo'lsa, ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyati oshishi mumkin. Shu sababdan davlat boshqaruvi va tartibga solish mexanizmlarining mavjud bo'lishi sheriklik munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Huquqiy, tartibga soluvchi va siyosiy muhitni yaratish davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining barqaror kechishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki davlat-xususiy sheriklik munosabatlari odatda aniq va kuchli siyosat bilan ta'minlanadi. Xususiy sherik o'z vazifalarini bajarishda davlat tomonidan siyosat va islohotlarni rejallashtirish, loyihami ishlab chiqish, shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarish bo'yicha vakolatli sherik bo'lishini hoxlaydi. Bu o'z navbatida davlatning o'z ish uslubini o'zgartirish va isloh qilishni talab qiladi. Umuman olganda, davlatning davlat-xususiy sheriklik bo'yicha ishtirokini quyidagicha tasvirlash mumkin:



1 - chizma: Davlatning davlat-xususiy sheriklik bo'yicha ishtiroki

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida huquqiy baza har bir mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatga ko'ra farqlanadi. Lekin umumiy jarayon ma'lum bir qonunlarning mavjud bo'lishini taqazo qiladi. Bu xususiy sektor uchun davlat xizmatlarini taqdim etish va foydalanuvchidan muayyan daromad undirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Huquqiy bazaning mavjudligi davlatga quyidagilarni ta'minlashga imkon beradi:

- o'zining siyosiy majburiyatini aniq qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yish;
- shartnomaviy kelishuvlari, tarmoq cheklowlari va boshqa parametrlar (loyiha hajmi, shartnomalar muddati) nuqtai nazaridan davlat-xususiy sheriklik munosabatlari doirasini aniqlash;
- hukumatning turli organlarining roli va vakolatlarini aniqlashtirish;
- investorlarga loyiha xatari bo'yicha kafolat berish.

Shuni unutmaslik kerakki, davlat-xususiy sheriklik bo'yicha yangi qabul qilinadigan qonunlar mavjud qonunchilik normalariga mos tushishi va ularni inkor qilmasligi kerak.


Hukumat islohotlar strategiyasining institutsional talablarini qondirishda bir qator asosiy savollarga javob topishi kerak. Bu savollarga quyidagilar kiradi:



- sheriklik munosabatlarini qo'llab-quvvatlash uchun institutsional va qonunchilik asoslari mavjudmi? Sheriklik munosabatlarini rivojlantirishda qanday to'siqlar mavjud?
- manfaatdor tomonlarning avtonomligi va javobgarlik darajasi ularning majburiyatiga mos keladimi?
- hukumatning tegishli darajalari o'z vazifalaridan voz kechishga yoki qayta ko'rib chiqishga tayyormi?
- hukumatning tegishli darajalari ayrim nazoratni xususiy sektorga topshirishga tayyormi?
- har bir tashkil etilgan institutda zarur mablag'lар, xodimlar, o'qitish va jihozlar mavjudmi?
- har bir muassasa o'z rolini tushunadimi va jarayonlarni qanday ishlab chiqishni biladimi?

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmini qurishda iqtisodiyotda sektorlar faoliyatini qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Chunki bunda xususiy sektor amalda davlat tomonidan ta'minlab kelinayotgan xizmatni bajarishga kirishadi va davlat asosiy jarayonlarning boshqaruvchisi va tartibga soluvchisiga aylanadi. Ko'plab mamlakatlar davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish borasida aynan institutsional dastaklarning mavjud emasligidan oqsamoqda.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda lozim bo'ladigan institutsional birliklarga quydigilar kiradi. (2-chizma).



**2 - chizma:** Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishda institutsional dastaklar

**Sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlik.** Sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlik muvofiqlashtirish, sifat nazorati, javobgarlik masalalarini hal qilishga yo'naltirilgan agentlik shaklida yoki vazirlik tarkibida (masalan moliya vazirligi) tashkil etiladigan alohida bo'limlardan iborat. Xususiy sektor uchun ushuu birlik shaffoflikni va izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlikning vazifalari quyidagi izchillikka asoslandi:

- loyihani identifikatsiyalash va ustuvorliklarni belgilash;
- raqobatni rag'battantirish;
- imkoniyatlarni sinchkovlik bilan tekshirish;
- oshkora tender jarayonlariga rioya qilish;
- xodimlarga va davlat aktivlariga tegishli munosabatni ta'minlash;
- davlat resurslaridan eng samarali foydalanishni ta'minlash.

Shu bilan bir qatorda, sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlikni tashkil qilgan paytda uning joylashuvi va tuzilishiga ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. Xususan, birlik vakolatlari to'g'ri tashkil etilgan bo'lishi va vakolatli ijrochi jarayonning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishi kerak bo'ladi. Shu sababdan jarayon to'liq malakaga ega bo'lgan mutaxasislardan tashkil topishi lozim.

Yakuniy ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masala sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi birlik va soha vazirliklari o'rtaсидаги aloqalardir. Ular o'rtaсидаги aloqalar o'zaro muvofiq bo'lishi kerak.


**Loyihani amalga oshiruvchi birlik.** Ushbu birlik loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Ba'zida u vazirlik bilan bog'langan yoki mustaqil tarzda bo'lishi mumkin. Loyihani amalga oshiruvchi ko'pgina birliklar yirik kapital qo'yilma loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladi. Loyihani amalga oshiruvchi birlikning tuzilishi moliyalashtiruvchi va ijrochi agentlikning talablari, loyiha turi va mahalliy konteksta bog'liq bo'ladi. Loyihani amalga oshiruvchi birlik, odatda, loyihaning borishini kuzatib boradi va hisobot beradi. Shuningdek, u loyiha bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy ishlarni amalga oshiradi, boshqaruv va buxgalteriya hisobi kabi masalalar bilan shug'ullanadi.



**Texnik yordam ko'rsatuvchi birlik.** Hukumat davlat-xususiy sheriklik shartnomalarini tuzishda yetarli tajribaga ega bo'lmasa, hukumatni qo'llab-quvvatlash maqsadida advokatlar, moliyaviy tahlilchilar, bitim bo'yicha maslahatchilar, iqtisodchilar, sotsiologlar kabi mutaxasislar yordamidan foydalanishi mumkin. Hukumat texnik yordam ko'rsatuvchi birlikni jamoa yoki yakka tartibda yollash mumkin, u holda muvofiqlashtirish jamoa o'rtaida ta'minlanishi kerak. Maslahatchilar jadallikni saqlab qolishda, hukumat tomonidan ko'rib chiqiladigan strategiyalarni ishlab chiqishda, davlat-xususiy sheriklik jarayonlarini tahlil qilishda, tender va muzokara jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, ushbu jarayon yaxshi tashkil etilgan, siyosiy jihatdan yaxshi himoyalangan va ko'zlangan natijaga olib kelishi lozim.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, DXShni tashkil etshning huquqiy-institutsional mexanizmlarini quydagicha tasvirlash mumkin (3-chizma).

### DXSH ni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari



#### 3 - chizma: DXSh ni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari

Davlat-xususiy sheriklik tushunchasi ijtimoiy va infratuzilmaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan davlat va xususiy sektor hamkorligining huquqiy vositasi sifatida O'zbekiston uchun nisbatan yangi hodisa hisoblanadi.

Osiyo taraqqiyot banki hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekiston har yili ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirishga yalpi ichki mahsulotining 7,4 foizini (taxminan 3,6 milliard AQSh dollarri) sarmoya kiritishi kerak. Transport, energetika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ichimlik suvi va kanalizatsiya, tibbiyot, ta'lif va boshqa muhim sohalarga ehtiyoj sezilmoqda. "O'zbekiston Respublikasining 2023-yilgi Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonunga muvofiq, ta'lif sohasiga 58,4 trillion so'm, sog'iqliqi saqlash sohasiga 28,4 trillion so'm, madaniyat sohasiga 2,5 trillion so'm, sport xarajatlari 2,3 trillion so'm va fanni rivojlantirish 1,8 trln so'mni tashkil etadi.

Ko'rinish turibdiki, ijtimoiy sohani moliyalashtirishda davlat byudjetiga yetarlicha yuk yuklangan. Tanning boshqa tomoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, iqtisodiyotning mavjud tarmoqlarida infratuzilma va xizmat ko'rsatish sifati qoniqarli emasligiga guvoh bo'lish mumkin. Bunda davlat-xususiy sheriklikni imkon qadar tezroq joriy etish davlat byudjetiga yengillik berishi, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatning sifati oshishiga erishilishi mumkin.

O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta'lif sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi" PQ-3651-son qarori bilan birinchi marta qonunchilik darajasida DXSh kontseptsiyasi yaratildi. Shunga qaramay, hali munosabatlarni qo'llab-quvvatlovchi alohida institutlar mavjud emas edi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadi, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yishda ushbu munosabatlarni nazorat qiluvchi, boshqaradigan va albatta, muvofiqlashtiruvchi vakolati or-gan bo'lishi shart.

Keyinchalik davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktabrdagi PQ-3980-son qarori bilan Moliya vazirligi huzurida yangi davlat muassasasi – Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Bu tashkilot davlat muassasasi hisoblanadi va mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik sohasida yagona davlat siyosatini yuritish bo'yicha




maxsus vakolatli organ hisoblanadi. Tashkil etilgan agentlik loyiha hujjatlarini tayyorlash va tasdiqlashda yordam beradi. Ikkinchidan, kadrlar tayyorlash va loyihalarni monitoring qilish, tender savdolarini o'tkazish, har ikki tomonning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlar, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik sohasidagi boshqa ishtirokchilar bilan hamkorlikni tashkil etish. Umuman olganda, u loyiha bilan bog'liq barcha munosabatlarda investorni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019–2022-yillarda umumiy qiymati 12,4 milliard dollardan ortiq bo'lgan 437 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) respublika loyihalari amalga oshirildi.

Har qanday infratuzilma loyihasini amalga oshirishda xususiy sektor o'z zimmasiga olishi kerak bo'lgan xavflar mavjud. Shu bois xususiy tadbirdirkor loyihani amalga oshirishdan avval o'z huquqlarining qonuniy kafolatlariga ahamiyat beradi. Shu maqsadda 2019-yil 10-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni imzolandi. Ushbu yirik huquqiy hujjat davlat va xususiy sektorning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Unda har ikki tomonning huquq va majburiyatlari aniq belgilangan. Qonun loyihasi Moliya vazirligi tomonidan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ko'magida tayyorlangan. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki Xalqaro moliya korporatsiyasi ekspertlarining fikr-mulohazalari ham qo'llanildi. Dunyoning yetakchi davlatlari: AQSh, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston, Belarus tajribasi o'rGANildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sون Farmoni 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 105-bandiga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'lijni saqlash, ta'lif, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga qiymati qariyb 14 mlrd dollardan iborat bo'lgan 154 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalarni amalga oshirish belgilangan.



**4 - chizma:** "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga ko'ra amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar soni<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda, DXSh – mamlakatda barqaror iqtisodiy-ijtimoiy moliyalashtirish muhitini ta'minlash maqsadida, infratuzilma va boshqa xizmatlarni, loyihalashtirish, ta'mirlash, boshqarish va nazorat qilishni ta'minlovchi davlat va xususiy sektor o'tasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik shakli hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarni rivojlantirish har bir davlatning iqtisodiy hayotida va ijtimoiy xizmatlarni yetkazib berishda muhim rol o'yaydi. Davlat byudjetining cheklanganlik sharoitida va aholining xizmat ko'rsatish sifati va normal hayot kechirishga bo'lgan talabining cheksizlik holatida ushbu munosabatlarni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti uchun asosiy vazifa bo'lib qoladi. Davlat tomonidan DXSh ni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta'minlashda sheriklik munosabatlarining huquqiy-institutsional mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda DXSh munosabatlarining huquqiy-institutsional mexanizmini riojlantirishda yuqoridaqilarga qo'shimcha tarzda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

<sup>1</sup> Berilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



- O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarining kelgusida ko'plab sohalar bo'yicha amalga oshirilishini inobatga olgan holda, ushu munosabatlar doirasidagi loyihalarni baholash va monitoringini ta'minlash maqsadida alohida shakldagi loyihalash institutlari tashkil qilinishi kerak;
- O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini samarali tashkil etish borasida kadrlar tayyorlash masalasiga e'tibor qaratish lozim. Bunda oliv o'quv yurtlarida sheriklik munosabatlari bo'yicha alohida darsliklarni yaratish va tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash kerak;
- Aholi o'rtaida tadbirkorlikning alohida ko'rinishi sifatida ushu munosabatlarni tashkillashtirishning ahamiyati bo'yicha tushuntiruv-maslahat loyihalarini amalga oshirish va ularni ushu sheriklik munosabatlaridan kengroq xabardor qilish lozim;
- Davlat tomonidan xususiy sherikning qamrov darajasiga qarab imtiyozlar tizimini kengaytirib borish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22- dekabr, 2022-yil. <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiysi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004. <https://www.imf.org/external/np/fad/2004/pifp/eng/031204.htm>
4. World Bank Institute / PPIAF, Public-Private Partnerships Reference Guide, Washington DC, 2012
5. Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principles of Policy and Finance. 2nd Edition. — Butterworth-Heinemann, 2018. ISBN: 978-0-08-100766-2.
6. Iossa, E., & Martimort, D. (2015). The Simple Microeconomics of Public-Private Partnerships. Journal of Public Economic Theory, 17(1), 4–48. doi: 10.1111/jpet.12114
7. Государственно-частное партнёрство в инфраструктуре. Практическое руководство для органов государственной власти. Джейффри Делмон. The world Bank, 2010.
8. Verhoest, Koen; Petersen, Ole Helby; Scherrer, Walter; Murwantara Soecipto, Raden Policy commitment, legal and regulatory framework, and institutional support for PPP in international comparison: Indexing countries readiness for taking up PPP. Working Papers in Economics and Finance, No. 2014-03
9. Guidebook on promoting good governance in public-private partnerships. United Nations. New York and Geneva, 2008
10. Augustine Edobor Arimoro. Legal framework for public-private partnership: South africa and Nigeria in focus.
11. Public-Private Partnership Handbook. Asian development Bank. September 2008. <https://www.adb.org/documents/public-private-partnership-ppp-handbook>
12. Дятлова Наталья Александровна. Соглашение о государственно-частном партнерстве: гражданско-правовые аспекты. Автограф. 2018.
13. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3651-sonli Qarori. 05.04.2018 yil. <https://lex.uz/docs/3610518>
14. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 20.10.2018 yil. <https://lex.uz/docs/4007891>
15. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 10.05.2019. <https://lex.uz/docs/4329270?ON-DATE=07.06.2022>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.